

ALISHER NAVOIY YUBILEYIGA TAYYORGARLIK BORASIDAGI MULOHAZALAR

Iroda Ishonxanova,

*Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ishonxanova74@bk.ru

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925379>

Annotatsiya. *She‘riyat mulkinging sultoni Mir Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi sobiq Sovet Ittifoqi miqyosida muhim hodisa bo‘lgan. Shu munosabat bilan Butunittifoq turkiy xalqlar syezdi chaqirilgan, Alisher Navoiyga bag‘ishlangan to‘plam chop etilgan. Maqolada Birinchi Butunittifoq turkiy xalqlar syezdi hamda “Mir Alisher” maqolalar to‘plami haqida ma‘lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *turkologiya, chig‘atoy tili, navoiyshunoslik, temuriylar davri, turkiy adabiyot, sharqshunoslik.*

Аннотация. *500-летие со дня рождения султана поэзии Мир Алишера Навои стало важным событием в бывшем Советском Союзе. По этому случаю был созван Всесоюзный тюркологический съезд и издан сборник, посвященный Алишеру Навои. В статье представлена информация о Первом Всесоюзном съезде тюркских народов и сборнике статей “Мир-Али-Шир”.*

Ключевые слова: *тюркология, чагатайский язык, навоиведение, период Тимуридов, тюркская литература, востоковедение.*

Abstract. *The 500th anniversary of the birth of the Sultan of Mir Poetry, Alisher Navoi, was a significant event in the former Soviet Union. To mark the occasion, an All-Union Turkological Congress was convened and a collection of articles dedicated to Alisher Navoi was published. This article provides information about the First All-Union Congress of Turkic Peoples and the collection of articles “Mir-Ali-Shir”.*

Keywords: *Turkology, Chagatai language, Navoi studies, Timurid period, Turkic literature, Oriental studies.*

Kirish. Ma‘lumki, XIX-XX asrlarda Rossiya hukumati tomonidan Markaziy Osiyoga qiziqish juda katta bo‘lgan. Sharq madaniyati, adabiyoti, urf-odatlarini rus ziyolilarida qiziqish uyg‘otgan. Ko‘plab adabiyotshunos va sharqshunos olimlar bu sohalarda tadqiqotlar olib borishgan. Chunonchi, ulug‘ vatandoshimiz, g‘azal mulkinging sultoni Alisher Navoiyning hayot va ijod yo‘li katta hajmdagi ilmiy ishlarning mavzusiga aylangan. 1856-yilda himoya qilingan Mixail Nikitskiyning magistrlik dissertatsiyasini Alisher Navoiy shaxsiyatidan ma‘lumot beruvchi ilk yirik manbalardan biri deb hisoblash mumkin.

Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligiga tayyorgarlik ishlariga XX asr boshlarida e‘tibor berilgan. Birinchi marta bu masala 1926-yil 6-martda Bokuda o‘tkazilgan Birinchi Butunittifoq Turkiy xalqlar syezdida ko‘tarilgan. Bosh kotib Alisher Navoiyning tavalludiga qamariy yil hisobi bo‘yicha 500 yil to‘lganini aytadi. Bu ma‘lumotni asoslash uchun faktlarga murojaat qilamiz. Ma‘lumki, hazrat Navoiyning tug‘ilgan sanasi hijriy 844-yil, ramazon oyining 17-kuni deb belgilangan. Bu melodiy hisob bo‘yicha 1441-yil 9-fevralga to‘g‘ri keladi. Agar tavallud kunidan 500 yilni hisoblasak, 1344-yil, ramazon

oyining 17-kuni chiqadi. Ushbu sanani melodiy yil hisobiga aylantirsak (bu o‘rinda biz akademik olim Shuhrat Sirojiddinovning “Hujriy va milodiy o‘zaro tabdil qilish usullari” qo‘llanmasidan foydalanishimiz mumkin), 1926-yil 31-mart sanasi kelib chiqadi. Shu sababli, Bokuda o‘tkazilgan syezdda bejiz bu masala ko‘tarilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan nashr etilgan “Mir-Alisher” to‘plami navoiyshunoslik tarixida muhim ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Unda Vasiliy Vladimirovich Bartold, Aleksandr Nikolayevich Samoylovich, Yevgeniy Eduardovich Bertels kabi yirik sharqshunos olimlarning maqolalari jamlangan bo‘lib, ular Navoiy ijodi, chig‘atoy adabiy tili va Temuriylar davri madaniy-siyosiy hayotini turli nuqtayi nazardan yoritgan. Shuningdek, hijriy va milodiy sanalarni o‘zaro tabdil qilish masalalarida Shuhrat Sirojiddinov tadqiqotlari muhim metodik asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur manbalar maqola mavzusini tarixiy, filologik va manbashunoslik jihatidan asoslash imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. 1926-yilda Boku shahrida o‘tkazilgan Birinchi Butunittifoq Turkiy xalqlar syezdi materiallari hamda 1928-yilda nashr etilgan “Mir-Alisher” to‘plami tahlil qilinib, ulardagi ilmiy qarashlar o‘zaro qiyoslandi. Shuningdek, hijriy va milodiy sanalarni aniqlashda ilmiy-tabdil usullariga tayangan holda xronologik aniqlik ta‘minlandi.

Tahlillar va natijalar. Birinchi Butunittifoq Turkiy xalqlar syezdi haqida ma‘lumot bersak. Syezd 1926-yilning 26-fevralidan 5-martiga qadar o‘tkazilgan. Bu tadbirning o‘tkazilishi 1925-yilda Ittifoq Xalq komissarlari kengashi tomonidan belgilangan. Ushbu maqsad yo‘lida maxsus tashkiliy qo‘mita tuzilgan. Uning tarkibiga turkiy xalq vakillari, sharqshunos olimlar kiritilgan. Jumladan, ular qatorida Abdurauf Fitrat nomi ham keltirilgan. Tashkiliy qo‘mita “Axborotnoma” (“Вестник”) chop etib, syezdga tayyorgarlik ishlarini yoritib borishgan. Sobiq Ittifoqning turkiyzabon respublikalari va boshqa hududlaridan Kongressga hal qiluvchi ovoz bilan 131 delegat kelgan. Bundan tashqari, qurultoyda Ittifoq miqyosidagi turkiyzabon respublikalar ilmiy-jamoat tashkilotlarining 600 delegati, shu jumladan SSSR fanlar Akademiyasi, Sharqshunoslik assotsiatsiyasi, Moskva sharqshunoslik instituti, Qozon universiteti, Boku davlat universiteti, Toshkent davlat universiteti, Leningrad universiteti vakillari ishtirok etgan. Shuningdek, turli xorijiy davlat olimlari ham tadbirda qatnashgan.

Qurultoyda 40dan ortiq turkiy tillar va turkiy xalqlar tarixi, etnografiyasi, san‘atiga doir ma‘ruzalar tinglangan. Qurultoy kun tartibida turkiy xalqlar madaniyatini rivojlantirish yo‘llari, lotin grafikasi asosida yozuv masalalari turardi. Tadbirda quyidagi asosiy masalalar ko‘tarilgan: Alifbo muammosi; Imlo muammosi; Terminologiya masalasi; O‘quv-uslubiy masalalar; Qarindosh va qo‘shni tillarning o‘zaro bog‘liqligi va aralashuvi muammolari; Turkiy tillarning adabiy-lingvistik muammolari, shu jumladan yagona adabiy til masalasi; Bobo til nazariyasi va turkiy tillarning tarixiy muammolari. Birinchi turkologiya qurultoyida turkiy xalqlar adabiy tillarining normalari va uslubiy

xususiyatlari, shuningdek, turk xalqlarining ona vatani masalalari ham muhokama qilindi. Qurultoy vakillari, shuningdek, ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiyning 500 yilligini nishonlash tadbirida ishtirok etishdi. Qurultoy Ikkinchi turkologiya qurultoyi 1927-yilda Samarqand shahrida bo'lishi haqida qaror qabul qilgan bo'lsa-da, bu qaror ma'lum sabablar tufayli amalga oshmadi.

1928-yil Leningradda chop etilgan "Mir Alisher" ("Мир-Али-Шир") to'plami bunga guvohlik beradi. To'plam sharqshunos olim Vasiliy Vladimirovich Bartoldning kirish so'zi bilan boshlangan. Kirish so'zida olim Alisher Navoiy yubileyiga bag'ishlangan to'plamning chop etilishi masalasi 1926-yil 6-martda Bokuda o'tkazilgan Birinchi Butunittifoq Turkiy xalqlar syezdida bosh kotib tomonidan ko'tarilganini aytadi.

Bu to'plam e'lon qilinishiga qamariy yil hisobi bo'yicha Alisher Navoiy 500 yoshga to'lgani asos sifatida keltirilgan. Orada o'tgan ikki yil muddat eskirgan hamda yetarli emas deb hisoblangan ma'lumotlarni to'ldirish uchun sarflangani ta'kidlangan.

To'plam ikki bo'limdan iborat. Birinchi bo'limda quyidagi maqolalar berilgan: A.N.Samoylovich "O'rta Osiyo turkiy adabiy tili tarixiga doir" («К истории литературного средне-азиатско-турецкого языка»), Ye.E.Bertels "Navoiy va Attor", A.A.Romaskevich "Yangi chig'atoy-fors lug'ati" («Новый чагатайско-персидский словарь»), V.V.Bartoldning "Mir Alisher va siyosiy hayot" («Мир-Али-Шир и политическая жизнь»).

Ikkinchi bo'lim "Tanqid va bibliografiya" deb nomlanib, besh ilmiy manbadan iborat: A.A.Semyonov. "Mir Alisher haqidagi "Navoiy" forsiy novellasi" (Ye.E.Bertels), Ozarbayjon adabiyot jamiyatining "Navoiy" to'plami (A.N.Samoylovich), "Vaqfiya" – Alisher Navoiy (Boku – 1926 – Ozar nashr) hamda uning "Munshoat"i (A.N.Samoylovich), Husayn Boyqaro devoni. Boku – Ozar nashr (A.N.Samoylovich), Amir Alisher Navoiy. Ikki til – forsiy va turkiy tilni qiyosiy o'rganish. To'plovchi va turkman tiliga o'giruvchi A.Qulmuhamedov (A.N.Samoylovich).

Birinchi qismdagi ilk maqola sharqshunos olim Aleksandr Nikolayevich Samoylovichga tegishli. Olim Sankt-Peterburg sharq tillari universitetini bitirgan. Turkman, usmonli turk, o'zbek, qrimtatar tillari, folklori, etnografiyasi, adabiyoti bo'yicha tadqiqotlar olib borgan. Ayniqsa, uning faqat turkiy adabiyotda uchraydigan tuyuqlar borasida olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovor.

Olim o'zining "O'rta Osiyo turkiy adabiy tili tarixiga doir" maqolasini Chingizxonning ikkinchi o'g'li Chig'atoy haqidagi ma'lumotlar bilan boshlaydi. Bobur esdaliklarida xalq vakillari "sipoh", "raiyyat", "mo'g'ul" va "chig'atoy" kabilarga bo'lingani aytilgan. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida esa "chig'atoy" nomi bilan aynan Movarounnahrda o'zbeklar tilga olingani ham qayd etilgan. Shuningdek, "chig'atoy" atamasi O'rta Osiyo hududidan tashqarida ham qo'llangan. Masalan, uni Herman Vamberi islom davridagi O'rta Osiyo turkiy adabiy tili deb

hisoblaydi. XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi turkiyshunoslar tadqiqotlarida “sharqiy turkiy” atamasi “chig‘atoy” atamasidan boshqacha biroz farqli ma’noda qo‘llanadi.

Maqola muallifi professor Mehmet Fuad Ko‘pruluzodaning chig‘atoy tili borasidagi hamda shu masala bilan bog‘liq ravishda Ahmad Yassaviy hikmatlari, “Qissasi Rabg‘uziy”, Xorazmiyning “Muhabbatnoma” asarlari tili haqidagi fikrlarini keltiradi. Samoylovich bu o‘rinda professorning fikrlariga nisbatan o‘z mulohazalarini ham bildiradi. Bundan tashqari, maqolada turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish maqsadida yuqorida nomlari keltirilgan asarlardan parchalar berilgan hamda munosabat bildirilgan.

To‘plamdagi ikkinchi maqola Yevgeniy Eduardovich Bertelsga tegishli bo‘lib, Alisher Navoiy va Fariduddin Attor haqida so‘z boradi. Bertels sharqshunos va eronshunos olim, sobiq Ittifoq, Eron, Turkmaniston, Arabiston fanlar akademiyalari muxbir a‘zosi, “Adabiyot ensiklopediyasi” hamda dastlabki “Islom ensiklopediyasi” mualliflaridan biri.

Maqola boshida muallif turkiy adabiyotning fors adabiyotiga taqlid sifatida baholanishi to‘g‘ri emasligini ta’kidlab o‘tadi. Shuningdek, shakl va mazmun unsurlaridan qay biri ustunligi bahsi ham yodga olingan. Bertels “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” asarlari munosabati masalasiga alohida to‘xtalgan. Belen, Nikitskiy va Bloshening fikrlarini keltirib, ularga nisbatan o‘z qarashlarini ham bayon qiladi. Maqola muallifi tasavvuf borasidagi hamda “Mantiq ut-tayr” va “Lison ut-tayr” dostonlarining qiyosiga oid mulohazalarini bildirib o‘tadi. Dostonlarning tarkibiy qismlari, ayrim parchalari o‘zaro qiyoslanib, munosabat bildiriladi. Muallif shunday xulosa beradi: “Lison ut-tayr” dostonini tadqiq qilish bizga ulkan musavvir, mavjud ma’lumotlardan betakror asar yaratuvchi so‘z ustasini namoyon qiladi, ammo bu badiiy iste’dod bilan bir qatorda keng bilimli, qiziqishlari rang-barang, katta hayotiy tajribaga ega, biz uchun eng qadrlisi – katta qalbli, atrofdagilarga nisbatan mehr-muhabbatga to‘la va shu muhabbat nomidan ularning barcha kamchiliklarini unutib, kechirishga qodir insonni ham ko‘ramiz”. [“Мир-Али-Шир”: 82]

Navbatdagi maqola Aleksandr Aleksandrovich Romaskevichga tegishli bo‘lib, “Yangi chig‘atoy-fors lug‘ati” deb nomlangan. A.Romaskevich tarixchi va eronshunos professor bo‘lgan. Fors tili va adabiyoti, xalq og‘zaki ijodi va shevalarni tadqiq qilgan. Ikkinchi jahon urushi davrida qo‘lyozmalar arxivini saqlab qolishda jonbozlik ko‘rsatgan.

Maqolada turkiy va forsiy tillarga tegishli bir qancha lug‘atlar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, “Abushqa”, “Sangloh”, “Maboniul-lug‘ot”, Fath Alixon Kojariyning “Lug‘ati atrokiya”si va boshqa lug‘atlar tilga olingan. Muallif Fath Alixon lug‘atiga alohida to‘xtaladi, undagi so‘zlar izohi va ma’nolari yuzasidan mulohazalar bildiradi.

Ilmiy maqolalarning so‘nggisi Vasiliy Vladimirovich Bartold qalamiga mansub bo‘lib, “Mir Alisher va siyosiy hayot” deb nomlangan. V.Bartold tarixchi, sharqshunos, turkiyshunos, arabshunos, islomshunos, manbashunos, rus sharqshunoslik maktabi

asoschilaridan biri, akademik, dastlabki “Islom ensiklopediyasi” mualliflaridan biri. Olimning maqolasi, asosan, Alisher Navoiyning siyosatchi sifatidagi faoliyatiga bag‘ishlangan. Bunda Temuriylar davri siyosiy-ijtimoiy muhiti, eroniylar va turkiylar munosabati, Hirotdagi ijtimoiy hayot, Alisher Navoiyning hayoti voqealari, Navoiy va Boyqaro munosabatlari, Astroboddagi hayot, Navoiy hayotining so‘nggi yillari masalalari alohida bo‘limlarga ajratilgan holda tahlil qilingan. Shuningdek, M.Nikitskiy, F.Belen tadqiqotlariga ham munosabat bildirilgan.

Xulosa. Haqli ravishda hozirgi o‘zbek adabiy tili tamal toshini qo‘ygan Alisher Navoiy shaxsiyati bugungi kunga qadar o‘z nufuzini yo‘qotmagan. Nafaqat O‘zbekiston va Markaziy Osiyo davlatlari, balki butun jahon miqyosida shoir hayoti va ijodi tadqiqi salmoqli hajmga ega. Shu ma’noda, Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan nashr qilingan birinchi to‘plamlardan hisoblangan “Mir Alisher” majmuasi ham o‘z qimmatiga ega. Bu va boshqa tadqiqotlar navoiyshunoslik faniga tegishli materiallarning ortishi va mukammallashishiga hissa qo‘shadi. Shu sababli Alisher Navoiy shaxsiyatini tadqiq qilish yo‘lidagi faoliyatimizni g‘ayrat bilan davom ettirishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Мир-Али-Шир. Сборник к пятисотлетию со дня рождения. Ленинград: Издательство Академии Наук СССР, 1928. – 181 с.
2. Сирожиддинов Ш. Хижрий ва милодий ўзаро табдил қилиш усуллари. – Тошкент: Muharrir, 2019. – 136 б.
3. https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%91%D0%B0%D1%80%D1%82%D0%BE%D0%BB%D1%8C%D0%B4_%D0%92%D0%B0%D1%81%D0%B8%D0%BB%D0%B8%D0%B9_%D0%92%D0%B%D0%B0%D0%B4%D0%B8%D0%BC%D0%B8%D1%80%D0%BE%D0%B2%D0%B8%D1%87
4. <https://www.google.com/search?q=%D1%81%D1%8A%D0%B5%D0%B7%D0%B4+%D1%82%D1%8E%D1%80%D0%BA%D1%81%D0%BA%D0%B8%D1%85+%D0%BD%D0%B0%D1%80%D0%BE%D0%B4%D0%BE%D0%B2>
5. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/hamidulla-boltaboev-alisher-navoiyning-ilk-yubileyi/>